

AMIR TEMUR SIYMOSIGA TARIX VA MADANIYAT NUQTAI-NAZARIDAN QARASHLAR

Sharapova Nuriya Anvarovna

Qashqadaryo viloyati Koson tumani

2-sonli kasb-hunar maktabi tarixfani o'qituvchisi

Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayt kishilardan yaxshidir.

Amir Temur

Annotatsiya: Ushbu maqola, ko'p yillar mobaynida bobokolonimiz Sohibqiron Amir Temurning kechmishi, tarixiy o'rni haqida ma'lumotlar, ayniqsa tog'ni manzil etib katta –katta adolatli yurishlarni yuz tutmoqni niyat etgan Amir Temur faoliyatining boshlang'ich davri haqida

Amir Temur- buyuk davlat asoschisi hisoblanadi. U Hindiston hamda Xitoydan qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari: shimoliy- sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha: janubiy-sharqda esa shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysundirildi.

Temur qadamjolari bo'ylab sayohatga shaylanishdan oldin, buyuk bobomizning tavallud topgan manzilgohi, ota-onasi, sohibqironning fe'l-atvori xususida, uning o'z zamondoshlari uyg'otgan taassurotlari borasida mavjud bo'lgan asarlar yordamida qisqacha ma'lumot

berishni lozim topdim.

Qadimda turkiy xalqlarda – ota-bobolarimiz udumiga ko'ra etti pushtini nommanom bilish, undanda oldinroq o'tgan avlod-ajdodlarining shajarasini yodda saqlash ham farz ham qarz hisoblangan. Ana shu qoidadan kelib chiqilganda sohibqiron bobomizning ismi shariflarining to'liq atalishi („Temurnoma” kitobi) Amir Temur ibn Amir To'rag'ay bahodur ibn Barqul bahodur ibn Ilongiz bahodur ibn Injil ibn Qorajor Nuyon ibn Amir Sug'uchin ibn Irimchi Zalosxon ibn Qojuvli bahodurxon ibn Tarbonxon deya zikr qilinadi.

Sohibqironning padari buzrukvorlarining ismi sharifi To'rag'ay bahodir ibn Barluqdir.

Buyuk bobokolonimizning volidalarining muborak nomlari esa Tegina Begim Moh deb atalgan.

Amir Temur tavallud topgan sana va manzilgoh haqida soʻz yuritsak Temur tavalludi uning qaysi manzilgohda va qay sanada tugʻilganligi toʻgʻrisida el orasida ham, matbuot sahifalarida ham turlicha bahslarga sabab boʻlgan. Dastavval, Oʻzbek Qomusiga koʻz tashlaylik: „Amir Temur 1336yil 9 aprelda hozirgi Qashqadaryo oblast Yakkabogʻ rayonidagi Xoʻjailgʻor qishlogʻida tugʻilgan. 1405 yil 15 yoki 18 fevralda Oʻtror shahrida vafot etgan.

„Qomus”-yirik mutaxassis, olimlar tomonidan tayyorlanganligini hisobga olsak, albatta ishonchli manba sanaladi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy sanʼati koʻp asrlar davomida Sharq Gʻarb davlatlariga oʻrnak va andoza boʻldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, musiqa, sheʼriyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning koʻp anʼanalari takomilga yetdi.

Koʻhna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zahmat hamda koʻrsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Amir Temurning birgina „Sohibqiron” unvonini yodga olamiz, bu unvon boʻlgʻusi jahongirga u tugʻilmasdan turiboq din ahillari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. „Sohibqiron” atamasining lugʻaviy maʼnosi- „yulduz burchlarining baxtli kelishida tugʻilgan farzand” demakdir. „Temurnoma” muallifining taʼkidlashicha „qiron”-yaʼni yulduz burchlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta sodir boʻladi. Insoniyat tarixida: „avval Iskandar Zulqarnayn hazratlari afandimiz, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sallallohu

xonimiz” shu soatu- soniyada dunyoga kelganlar. Ularning tavalludlarining uzoqligi yuqoridagi taʼkidlanganidek roppa-rosa sakkiz yuz yilni tashkil qiladi.

Amir Temur siyosiy sahnaga qadam qoʻyganida endigina 24 yoshga kirgan edi. Mamlakatda boshboshdoqlikni, mahalliy siyosiy kuchlarning oʻzaro qarama-qarshiligi avziga chiqqandi. Bu ham kamdek asosiy qudrati tarixiy Moʻgʻulistonda mujassamlashgan chingiziylar tez-tez Movaraunnahrga zugʻum qilib turardilar.

Amir Temur faoliyati bilan boshlangan uygʻonish va yuksalish davrini olimlarimiz „renessans” deb ataydilar. Butun odamzod tarixida juda nodir hodisa boʻlgan renessans Gʻarbu Sharqda har ming yilda faqat ikki uch marta sodir boʻlarkan. Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar faoliyati bilan boshlangan yuksalish bizning diyorumizdagi birinchi renessans sanalsa, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur faoliyatini oʻz ichiga olgan katta davr ikkinchi renessans hisoblanadi.

Afsuski, biz koʻp yillar davomida ana shunday buyuk zot, dunyo davlat arbobi, ulugʻbunyodkor Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va haqqoniy baho berish imkonidan mahrum boʻlib yashadik. Shoʻro tuzumi sohibqiron haqidagi haqiqatni xalqdan yashirib keldi. Bobokolonimiz toʻgʻrisida ikki ogʻiz iliq soʻz aytilgan barcha manbalar koʻzdan yashirilgan, taʼqiqlangan yoki soxtalashtirilgan edi.

O`zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir.

Yurtimizda sohibqiron merosini teran o`rganish, uning xotirasini abadiylashtirish sohasida boshlangan va davom ettirilayotgan xayrli ishlarni sanab sanog`iga yetib bo`lmaydi.

Barcha o`quv maskanlar qatori bizning Koson tumani 2-sonli kasb-hunar maktabimizda ham Amir Temurning 686 yilligi keng miqiyosda nishonlandi. Bilimli yoshlar tomonidan sohibqiron siymosi, hikmatli o`gitlari, siyosat maydonidagi jangovorlik holatlari aks ettirildi. Kelajak yoshlarini buyuk bobomizdek, adolatli, mard, jasur, vatanparvar, dunyodagi jamiki barcha yaxshi hislatlar nomoyondasi sifatida ko`rdik.

Amir Temur-bizning shon-shavkatimiz, g`urur-iftixorimiz. Amir Temur-xalqimiz dahosining timsoli, ma`naviy qudratimiz ramzidir...

Kimki o`zbek nomini, o`zbek millatining kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo`shgan hissasini, shu asnoda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo`lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

„Jangu jadal bayrog`ini ko`tarib mazlumlar haqini zolimlardan olmoqchi bo`ldim. Lekin razil kimsalar bu sirni g`animlarimga fosh qilib qo`ydilar. Shundan keyin o`ylanib qoldim;... yaxshisi, hozircha shahardan chiqib Samarqand tog`larida joylashay, toki menga qo`shilishni istagan huzuringa kelsinlar. Shunda men katta sipoh to`plab g`animlarga qarshi jangu jadalni boshlagayman.”

Temur „Tuzuklari” dan.